

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 39 (1638), 2026-yil 26-fevral, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz.uz_news

POYTAXTDA URBANIZATSIYA
JARAYONLARI EKOLOGIYA TALABLARI
ASOSIDA RIVOJLANTIRILADI**Prezident Shavkat Mirziyoyev 25-fevral kuni Toshkent shahrida urbanizatsiya jarayonlarini rivojlantirish va yashil hududlarni kengaytirish bo‘yicha takliflar taqdimoti bilan tanishdi.**

So‘nggi yillarda poytaxt iqtisodiyoti va aglomeratsiyasi jadal o‘tib, Toshkent shahrining doimiy aholisi 3,1 million nafardan oshdi. Shu bilan birga, 2045-yilga borib, shahar aholisi ikki barobardan ziyodga o‘rtishi prognoz qilinmoqda. Bu esa urbanizatsiya jarayonlarini uy-joy, transport-logistika, muhandislik tarmoqlari hamda ijtimoiy infratuzilmaga tushayotgan yuklamaga mutanosib holda rivojlantirishni talab etadi.

Shuningdek, shahar muhitini sog‘lomlashtirish va turmush sifatini yaxshilash maqsadida yashil hududlarni kengaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Xususan, Toshkent shahri va uning atrofida yashil zonalar maydonini uch baravarga oshirib, 25 ming gektarga yetkazish, aholi jon boshiga yashil maydonlar hajmini 3 kvadrat metrdan 6 kvadrat metrgacha ko‘paytirish maqsad qilingan.

O‘tgan davrda tashabbuskorlar tomonidan qurilish bo‘yicha umumiy maydoni 2 ming 679 gektar bo‘lgan 85 ta loyiha taklif kelib tushgan. Taqdimotda ushbu loyihalarni kompleks ko‘rib chiqishning natijalari haqida axborot berildi.

O‘rganish davomida har bir loyihani shaharsozlikning yagona yondashuvi asosida baholash, hududning kamida 30 foizida yashil maydonlar tashkil etish imkoniyati, renovatsiya orqali eskirgan hududlarni kompleks yangilash hamda yer maydoni 1 gektargacha bo‘lgan kichik va zich qurilishlar amaliyotidan voz kechish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi.

Ko‘rib chiqish yakunlaridan kelib chiqib, 18 ta loyihani amalga oshirishga ruxsat berish, 12 ta loyihaning yer maydoni, qavatlar soni va loyiha konsepsiyasiga o‘zgartirish kiritgan holda maqbullashtirish taklif etilgan, 54 ta loyihani

esa konseptual jihatdan to‘liq qayta ko‘rib chiqish zarur deb topilgan.

Yangi hayot tumanidagi “Yangi avlod” maxsus sanoat zonasini kengaytirish rejalari muhokama qilindi. Buning hisobiga Toshkent shahri markazidan yirik sanoat korxonalarini bosqichma-bosqich ko‘chirish, yuqori qo‘shilgan qiymat yaratadigan va ekologiya talablariga javob beradigan ishlab chiqarishlarni joylashtirish muhim ekani qayd etildi.

Ma‘qullangan loyihalarni amalga oshirish natijasida har yili qurilish hisobidan qo‘shimcha 1,5 milliard dollar yalpi hududiy mahsulot, byudjetga 3,5 trillion so‘m tushumlar shakllanishi va 260 ming ish o‘rni yaratilishi kutilmoqda.

Taqdimotda yashil hududlarni kengaytirish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi.

Loyihalarning kamida 30 foizida, ya‘ni 400 gektarda yashil maydonlar tashkil etish shartligi ko‘rsatib o‘tiladi. Bundan tashqari, Toshkent shahrining 9 ta hududida umumiy maydoni 134 gektar bo‘lgan alohida yangi jamoat parklari barpo etish rejalari ko‘rib chiqildi va ma‘qullandi.

Loyihalardan undiriladigan infratuzilma to‘lovlaridan tushgan mablag‘lar, birinchi navbatda, yangi yashil hududlar barpo etishga, ortgan qismi esa shahar infratuzilmasi obyektlarini qurishga sarflanishi zarurligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Prezidentimiz poytaxtdagi urbanizatsiya jarayonlarini jamoatchilik manfaatlari, sog‘lom muhit va ekologiya talablari bilan bog‘lagan holda rivojlantirish bo‘yicha mutasaddilarga ko‘rsatmalar berdi.

O‘ZA

TEMIR YO‘L TRANSPORTINI
MODERNIZATSIYA QILISH BO‘YICHA
LOYIHALAR KO‘RIB CHIQILDI**Prezident Shavkat Mirziyoyev “O‘zbekiston temir yo‘llari” aksiyadorlik jamiyati tarkibidagi korxonalarda yuk vagonlarini qurish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar va kelgusi yillar uchun rejalar taqdimoti bilan tanishdi.**

Mamlakatimizda transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, eksport salohiyatini kengaytirish va iqtisodiyot tarmoqlarini uzluksiz logistika xizmatlari bilan ta‘minlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Temir yo‘l transportida keng ko‘lamli yangilanish jarayonlari amalga oshirilmog‘da. Ular sohani tubdan modernizatsiya qilish, ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish hamda vagon parkini bosqichma-bosqich yangilashga xizmat qilmoqda.

Xususan, 2023-2025-yillarda qiymati 105 million dollar bo‘lgan loyiha doirasida 1590 dona yarim ochiq yuk vagoni ishlab chiqarildi. Bu esa ichki va xalqaro tashuvlarda yuki aylanmasini oshirish, logistika zanjirlarining barqarorligini ta‘minlash imkonini bermog‘da.

Shuningdek, 2025-2026-yillarga mo‘ljallangan 150 million dollarlik yangi bosqichda yuk va yo‘lovchi vagonlarini ishlab chiqarish, shu bilan birga, “O‘zbekiston temir yo‘llari” AJ tarkibidagi vagon ishlab chiqarish


korxonalarini modernizatsiya qilish ishlari olib borilmoqda. Loyiha doirasida 954 dona yuk va 70 dona yo‘lovchi vagonlarini ishlab chiqarish boshlangan.

Bugungi kunga qadar ushbu loyiha doirasida 45 dona yo‘lovchi vagoni va 340 dona sistemasi ishlab chiqarildi. Joriy yil yakuniga qadar qo‘shimcha ravishda 614 dona yuk va 25 dona yo‘lovchi vagonlari ishlab chiqariladi.

Kelgusi yillarda yuk vagonlarini ishlab chiqarish hajmlarini keskin oshirish uchun yaqinda Prezidentimiz alohida qarorni imzolagan edi. Hujjatga muvofiq, qo‘shimcha 100 million dollar mablag‘ ajratilib, 1350 dona yuk vagoni yetkazib beriladi. Buning uchun shu yilning o‘zida sanoat korxonalarini quvvatlarini 1,5 barobarga oshirish va 2 mingga yuk vagonlarini ishlab chiqarish vazifasi qo‘yildi.

Davlatimiz rahbari vagon parkini yangilash, tashish hajmlarini oshirish hamda xarajatlarini maqbullashtirish yuzasidan mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berdi.

O‘ZA



Hech qachon unutmang, farzandlari bilimli, sog‘lom, mard va jasur, doimo oldinga intilib yashaydigan xalq va davlatning kelajagi albatta yorug‘ bo‘ladi. Men butun O‘zbekiston yoshlari ana shunday fazilatlar egasi bo‘lishini tilayman.

Ishonchim komil, biz butun xalqimiz bilan, siz, aziz farzandlarim bilan ulug‘ maqsadlarimizga albatta yetamiz! Yangi O‘zbekistonni barchamiz birgalikda albatta barpo etamiz!

Shavkat MIRZIYOYEV,
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti

Yoshlarga oid davlat siyosati

TASHABBUSKOR VA FAOL YOSHLAR
MAMLAKATIMIZNING KATTA IQTISODIY,
IJTIMOIY VA SIYOSIY KUCHIDIR

So‘nggi yillarda mamlakatimizda yoshlar bilan ishlash bo‘yicha dunyoda o‘xshashi kam bo‘lgan vertikal boshqaruv tizimi yaratildi. “Yangi O‘zbekiston” g‘oyasini o‘zida mujassam etgan bu tizimda yoshlar bilan bog‘liq biror masala e‘tibordan chetda qolayotgani yo‘q. Mamlakatimiz rahbarining o‘zi, qolaversa, vazir-u hokimdan tortib, mahalla raisigacha — hammaning ishi yoshlar bilan bog‘landi.

Prezidentimizning yoshlar bilan navbatdagi muloqotida navqiron avlod vakillarining turli sohalarida erishayotgan yutuqlari tahlil qilindi. Ularning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha imkoniyatlar belgilandi. Samimiy va iliq lahzalarga boy bu uchrashuv yoshlarning orzulariga qanot bag‘ishlab, barcha maralar sari undagani shubhasiz.

Davomi 2-, 3-betlarda

MULOQOTDAN KEYINGI O‘YLAR...

Rektorning yana 20 yashar paytiga qaytish orzusi haqida

Prezidentimizning bu galgi yoshlar bilan ochiq muloqoti oldingilaridan boshqacharoq bo‘ldi. 2018-yili rektor etib tayinlanganimdanda buyon shu formatdagi barcha uchrashuvda qatnashganman.

Dastlabki muloqotlarda yoshlar tortinchoq, uyatchan edi. O‘zini erkin tutmas, hayiqishi va hayajoni kuchli ekani sezilib turardi. Bir yil o‘tib, yigit-qizlarimizning ko‘ngil qulfi ochila boshladi. Biroq shundayam hissiyot va iymonish kuchli edi. Yana bir yil o‘tgach, yoshlar muammo va dardlarini o‘rtoqlasha boshladi. So‘ng taklif va mulohazalarini baralla aytadigan, daxldorlik hissini namoyon etadigan bo‘ldi.


Davomi 3-betda

AQL BILAN ISHLASH DAVRI

YOXUD G‘AFLATDAN QUTULISHNING BESH YO‘LI

Insoniyat tarixi har doim uni rivojlanishga chorlaydigan, farovon hayotni ta‘minlashga ko‘mak beradigan, pirovard natijada taraqqiyotning yangi bosqichlariga eltadigan g‘oyalarni, mafkuralarni bilan barchamizni rom etib kelgan. Ayni paytda taraqqiyotning muayyan bosqichida barchani ohanrabosi bilan lol qoldirgan avvalgi “yangiliklar” keyingi avlodlarni o‘z domiga tortib, uni mashaqqatli, xavfli vaziyatlarga solish holatlari ham tobora ko‘paymog‘da.

Odamlar o‘z hayoti, kishilar o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni yaxshilash va yangillatish maqsadida pulni yaratdi. So‘ng barcha ana shu pulning “qulig‘a aylandi. O‘zimizni himoya qilish, xavfsizligimizni ta‘minlash umidida



o‘qotar qurollar kashf qildik. Global miqyosda ilmiy texnika inqilobi yuz berdi, boshimizdan to‘rtta sanoat inqilobini o‘tkazyapmiz. Biroq bugun ana shu inqiloblarning oqibatida jahoniy ekologik falokatlar qarshisida turibmiz. Dunyo xavfsizligini ta‘minlash, hayot darajalarini tezlatish uchun atom “dunyosi”ni kashf etdik. Endi esa ana shu qurol insoniyatga tahdid solmog‘da.

Hech shubhasiz, insoniyat o‘z tarixi davomida, ayniqsa, o‘tgan asrning 50-yillaridan boshlab taraqqiyotning misli ko‘rilmagan darajasiga yetishdi. Endilikda asrlar davomida erishilgan yutuqlar,

kashfiyotlarni qisqa vaqtda, bir necha yillar davomida o‘lga kiritish imkoniyati vujudga kelmog‘da.

Turmush tarzimiz, hayotiy tamoyillarimiz, odamlar, davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar shiddat bilan o‘zgarmog‘da. Biroq ayni paytda qadriyatlar transformatsiyasi yuz berib, inson avvallari amal qilib kelgan, ulardan bahra olgan, qanchadan qancha avlodlarni yetuklik sari yetaklagan tarbiya tizimlari yemirilishga uchrarmog‘da. Odamlar o‘rtasidagi sof insoniy munosabatlarda ortga ketish kuzatilmoqda. Hashamatlar iyerarxiyasi o‘zgarib, ruhiy hissizlik kuchayib borayotgandek tuyuladi.

Eng yomoni, davlatlar, mintaqalar o‘rtasidagi ziddiyatlar vaziyatni keskinlashtirmog‘da. Bundan 112 yil avval Birinchi jahon urushi boshlanishidagi eng ustuvor g‘oya bo‘lingan dunyoni qayta bo‘lib olishdan iborat edi. Bugun ham ana shu g‘oya yangicha shakl va mazmunda yana bor bo‘y-bastini ko‘rsatmog‘da.

Davomi 5-betda

GEOSTRATEGIK YONDASHUVNING
SAMARADOR MODULI

Mamlakatlar o‘rtasidagi do‘stlikni mustahkamlash, aloqalarni hamkorlik darajasiga olib chiqish katta siyosiy iroda, aniq strategik qadamlarni talab etadi. Bugun yangi O‘zbekiston ana shu yo‘ldan dadil bormog‘da. Yurtimiz dunyo mamlakatlariga ochilibgina qolmay, ishonchli do‘stlik va hamkorlik aloqalarini faol rivojlantiryapti. Keyingi yillardagi AQSH bilan munosabatlarimiz ham tarixiy bosqichga kirib borgani, o‘zaro aloqalardagi ishonch va samimiylik hamkorlikning yangidan yangi yo‘nalishlarini ochib berayotganiga guvoh bo‘lyapmiz.



Joriy yilning 17-19-fevral kunlari O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev AQSH Prezidenti Donald Trampning taklifiga binoan ushbu mamlakatga amaliy tashrif bilan bordi. Tashrifni tashqi siyosat taqvimidagi navbatdagi diplomatik safar sifatida baholash masala mohiyatini to‘liq ochib bermaydi.

O‘zbekiston Prezidenti Tinchlik kengashining dastlabki yig‘ilishida ishtirok etib, nutq so‘zlashi mintaqaviy siyosatdagi o‘zgarishlarning ramziy va mazmunli

tus olayotganini ko‘rsatadi. Jadal xalqaro transformatsiyalashuv Markaziy Osiyoda yaxshi qo‘shnichilik, o‘zaro ishonch va hamjihatlik tamoyillari asosida shakllanayotgan yangi siyosiy muhitning jahon miqyosda qabul qilinayotganini anglatadi. Mintaqaning geosiyosati hamda geoiqtisodiyotining ahamiyati ortib borayotgani aynan shu jarayonlarda yaqqol ko‘rinadi.

Davomi 4-betda



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official

Jamg'armaga har yili budjetdan 20 milliard so'mdan mablag' beriladi. Bunga qo'shimcha viloyat hokimlari ham mahalliy byudjetdan 3 milliard so'mdan ajratadi.



TASHABBUSKOR VA FAOL YOSHLAR MAMLAKATIMIZNING

Boshlanishi 1-betda



Shirin OBIDOVA,
O'zbekiston volontyorlari
assotsiatsiyasi rahbari

O'zgalarga yordam qo'lini cho'zish, eng mushkul vaziyatlarda ko'maklashish xalqimizga xos xususiyat. Ana shu go'zal fazilat bugungi zamonaviy dunyoda volontyorlik harakatida yangi ma'no kasb etib kelmoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda bu faoliyatning huquqiy asosi ishlab chiqilgani, volontyorlar maktabi, oliygo'hlarda markazlar tashkil qilingani hisobiga bizda ham volontyor yoshlar soni ko'paydi. Ekologiya, tibbiy xizmat, ta'lim, favqulodda vaziyatlarda ko'maklashish yo'nalishida faoliyat yuritayotgan volontyorlar soni 100 mingdan oshdi.

VOLONTYORLIK HARAKATI YANGI BOSQICHGA KO'TARILMOQDA

Davlatimiz rahbarining yoshlar bilan uchrashuvi nihoyatda hayajonli kechdi. Mamlakatimiz volontyorlar hamjamiyati volontyorlik harakatining yangi bosqichiga oid muhim yangiliklar va strategik qarorlarni katta umid va ishonch bilan kutayotgan edi. Umidimiz besamar ketmadi. Yig'ilishda volontyorlik harakatiga alohida urg'u berildi. Harakatning tizimli rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi chora-tadbirlar qabul qilindi.

Tashabbuskor yoshlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida vazirlik va idoralar rahbarlari, faol ko'ngilli yoshlardan iborat Volontyorlik harakatini rivojlantirish bo'yicha vasiylik kengashini tashkil qilish taklif etildi.

Yoshlar ishlari agentligida "Volontyorlikni qo'llab-quvvatlash" jamg'armasi tuzilishi belgilandi. Ushbu jamg'armaga har yili budjetdan 20 milliard so'mdan mablag' beriladi. Bunga qo'shimcha viloyat hokimlari ham mahalliy byudjetdan 3 milliard so'mdan ajratadi.

Mazkur mablag'lar hisobidan yoshlarning volontyorlik loyihalariga 100 million so'mgacha grant yo'naltiriladi. Volontyor yoshlarga "ijtimoiy faollik kartasi" ochilib, ekologiya, ijtimoiy himoya, tibbiyot, ta'lim, jamoat xavfsizligi kabi yo'nalishlardagi ishtirokiga qarab, ball berib boriladi.

Ayni damda taqdim etiladigan rag'batlantirish tizimida pul aylanmasi emas, balki onlayn ballar tizimi yo'lga qo'yilishi nazarda tutilgan. Barcha jarayon "ijtimoiy faollik kartasi", qolaversa, volunteer.uz yagona platformasi orqali kuzatib boriladi.

Inklyuziv volontyorlik — Ijtimoiy himoya milliy agentligi oxirgi yillarda jadal qo'llab-quvvatlab kelayotgan yo'nalishlardan. O'tgan yili birinchi marotaba "VOICE UP" xalqaro tadbiri doirasida biz bir jamoa sifatida aynan inklyuziya,

ya'ni yoshi, kelib chiqishi, ko'rinishi, nogironligi bor-yo'qligidan qat'i nazar, yoshlarning egzulik yo'lida birlashganini ko'rdik. Bu yil esa butun respublika miqyosida mingdan ortiq tashabbuskor yoshni aynan mana shunday inklyuziv maydonda, inklyuziv volontyorlik atrofida birlashtirish ko'zda tutilgan.

Bugun volontyor bo'lish istagidagi yoshlar ko'pligi quvonarli. Aslida, volontyorlik bilan inson nafaqat jamiyatga, balki o'ziga ham yordam beradi, ya'ni serqirra fuqaro, baxtli inson sifatida o'zini shakllantiradi.

Yuristik, shifokorlik, o'qituvchilik kabi ko'plab kasb egalari safimizda biz bilan yonmayonligi xalqimizning mehdariyo, bag'rikeng ekanidan dalolat beradi. Ular yaxshilik ulashishga bel bog'lagan volontyorlardir.

Bu yil volontyorlik loyihalarini va yil volontyorlari tanlovlarini o'tkazamiz. Bunda nafaqat ko'makka shay, fidoyi yigit-qizlar, balki dunyo bo'ylab egzulik yo'lidagi qahramonlarni ham kashf etishga harakat qilamiz.

Davlatimiz rahbari bilan uchrashuv ana shu tashabbuslarimizga keng yo'l ochdi. Samimiy muloqot chog'ida barchamiz e'tibor va g'amxo'rlik, qo'llab-quvvatlovni his qilish turdiki. O'zbekistonda volontyorlik harakati yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

IMTIYOZLAR ISTIQBOLLI LOYIHALAR DEMAK

O'quv markazida ilk bor ish boshlaganimda 11-sinf o'quvchisi edim. Ingliz tilini yaxshi bilganim bois, o'qituvchilikka qabul qilindim. O'shanda asosan kichik yoshli bolalarni o'qitardim. Keyinchalik universitetda ingliz tili bo'yicha tahsil oldim.

Ancha vaqtdan buyon o'quv markazi ochishni niyat qilgandim. Turmush o'rtog'imga aytgandim, ma'qulladi. Birga ish boshladik. Dastlab ijaraga joy olib, 5 yoshli bolalarni maktabga tayyorlay boshladik. Lekin bu ish uncha oson kechmadi. Shunday bo'lsa-da, chekinmadi. Avvaliga o'quv markazimizni rus, yapon va ingliz tilini o'qitishga ixtisoslashtirdik. Raqobat kuchli. Ota-onalarni qiziqitirib, jalb etishning o'zi bo'lmaydi. Shu bois, tajribali, o'z ustida astoydil ishlaydigan yoshlarni o'qituvchilikka qabul qildik. Qisqa muddatda natija ko'rindi. O'quvchilar soni ortib borishi tufayli markazimizni kengaytirishga ehtiyoj sezila boshladi. 2,5 milliard so'm

imtiyozli kredit olib, yangi markaz binosini barpo etdik. Hozir markazimizda 400 o'quvchi tahsil olmoqda. 60 dan ziyod ish o'rni ochilgan. Yapon, xitoy, ingliz, rus, koreys tillarini o'rgataymiz.

Davlatimiz rahbarining yoshlar bilan uchrashuvida ishtirok etdim. Uchrashuv juda ajoyib o'tdi. Katta kuch oldik. Prezidentimiz har bir gapida doim yoshlarni qo'llab-quvvatlashini ta'kidladi. Qator imtiyozlar berdi. Bu — yosh tadbirkorlar uchun katta imkoniyat. Shu paytga qadar bir necha loyihalarim bor edi. Rosti, boshlashga cho'chib turgandim. Kechagi uchrashuvdan so'ng bugundan harakatni boshlab yubordim.



Asal ZIYODOVA,
Qarshi shahridagi "Bolalar
akademiyasi" nodavlat
ta'lim maktabi rahbari

Filiallarni ochishdan tashqari barcha qulaylikka ega "Ona va bola" markazini ochish ham rejamizda bor. Prezidentimizning ishonchini oqlash uchun astoydil harakat qilamiz.

MA'NAN YETUK VA SALOHIYATLI AVLODMIZ

Jahongir NOSIROV,
"Mard o'g'lon" davlat
mukofoti sohibi

Yurtimiz aholisining salmoqli qismi yoshlardan iborat. Bu katta kuch, shu bilan birga, ulkan imkoniyat va salohiyat ham. Ya'ni yoshlarga qancha ko'p e'tibor qaratilsa, mamlakat shuncha qudratli bo'lib boraveradi. Tengdoshlarimiz erishayotgan, qo'lga kiritayotgan yutuqlar soni oshib, ko'lami kengayib bormoqda. Shu ma'noda, bugun yoshlarga sifatli ta'lim-tarbiya berish, xorijiy tillarni o'rgatish, kasb egallab, hayotda munosib o'rin topishiga ko'maklashish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi.



O'zbekiston Yoshlar taraqqiyoti global indeksida eng yuqori sur'atda rivojlanayotgan davlatlar qatorida. Bu mamlakatimizda yoshlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, ta'lim va kasbiy imkoniyatlarini kengaytirish, tashabbus va startaplari uchun keng maydon yaratish borasidagi islohotlar samarasidir.

Barcha darajadagi rahbarlar yoshlarni til va kasb-hunarga o'rgatish, sportga jalb etish, g'oya, loyiha hamda startaplarga ko'mak berish, ularni ishl va daromadli qilish bo'yicha yanada faol ishlashi, birorta yigit-qizni

e'tiborsiz qoldirmasligi zarurligi qayd etildi. Bu e'tibor aholisining aksariyati yoshlardan iborat mamlakat uchun strategik ahamiyat kasb etadi. Zero, ularning qobiliyatini aniqlab, to'g'ri yo'l ko'rsatish orqali kelajakda zamon talabiga mos, yetuk kadrlar shakllanishiga zamin yaratiladi. Bunday yondashuv yoshlarning shaxsiy kamoloti, oilalar farovonligi va butun mamlakat taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Ilm-fanga kiritilayotgan har bir yangilik mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga xizmat qiladi. Jumladan, startaplarga e'tibor qayerda katta bo'lsa, shu yerda taraqqiyot yanada yuqori darajaga ko'tarilmoqda. Ayni paytda yoshlarimiz ishlab chiqqan 63 startap loyiha AQSH, Janubiy Koreya, Buyuk Britaniya va BAA bozoriga kirib bordi.

Uchrashuvda yoshlar tadbirkorligi, bandlik masalalari ham e'tibordan chetda qolmadi. Bu borada qator imkoniyatlar yaratilishi aytib o'tildi. Kasbiy ta'limni rivojlantirish, yoshlarni mehnat bozoriga tayyorlash, texnikumlarda ta'lim dasturlarini ish beruvchilar talabi asosida yangilash, dual ta'lim qamrovini kengaytirish, moddiy-texnik bazani yaxshilash bo'yicha vazifalar belgilandi.

INNOVATSION TAFAKKURGA EGA YIGIT-QIZLAR SHAKLLANYAPTI

Muloqotda ilgari surilgan tashabbuslarning muhim qismi innovatsion tafakkurga ega yigit-qizlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Moliyalashtirish ko'lamining kengaytirilgani kapital masalasi hal etilishiga xizmat qilish bilan birga yoshlarni keng fikrlash, yangi texnologiyalarni sinovdan o'tkazish, bozorga chiqish strategiyalarini puxta o'ylashga undaydi.

Texnikumlarda startaplari yaratishga ruxsat berilgani ham ta'lim tizimidagi katta burilishdir. Bu yangilik yoshlar uchun bilim va amaliyotni birlashtiradigan noyob imkoniyatni taqdim etadi. Texnikum bosqichidayoq 1 milliard so'mgacha moliyaviy ko'mak olish — yosh mutaxassislarni mustaqil yondashuv, yangilik yaratish va tajribalar o'tkazishga ruhlanitiradi.

Yoshlar uchun xalqaro tajriba ham juda muhim. Shu ma'noda, "Work and travel" dasturi orqali xorijda ishlash imkoniyati yaratilgani texnikum o'quvchilarining kasbiy ko'nikmalarini oshirib, dunyoqarashini kengaytiradi. Bunday tajriba yoshlarning global mehnat bozori talablari bilan tanishishi, til va madaniy muloqot ko'nikmalarining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Har bir hududda Yoshlar biznes inkubatorining tashkil etilishi startaplari uchun doimiy maslahat, mentorlik, biznes-reja tuzish

“

YOSHLAR UCHUN XALQARO TAJRIBA HAM JUDA MUHIM. SHU MA'NODA, "WORK AND TRAVEL" DASTURI ORQALI XORIJDA ISHLASH IMKONIYATI YARATILGANI TEXNIKUM O'QUVCHILARINING KASBIY KO'NIKMALARINI OSHIRIB, DUNYOQARASHINI KENGAYTIRADI.

va bozorga chiqish bo'yicha ko'mak beruvchi muhim platformaga aylanadi. Bu markazlar yoshlar orasida tadbirkorlik madaniyatining shakllanishida asosiy o'rin tutadi.

Yoshlar bilan muloqotning yana bir muhim jihati, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini yangicha yondashuv asosida kengaytirishdir. Mamlakatimizda inson kapitaliga e'tibor yildan yilga kuchayib borayotgani bejiz emas. Chunki taraqqiyotning poydevori, avvalo, yoshlarning bilimi, mahorati, madaniyati va jamiyatdagi faolligiga bog'liq. Shu nuqtayi nazardan, mamlakatimiz rahbari ilgari surgan yangi tashabbuslar har bir yoshning imkoniyatlarini kengaytiradi.

Volontyorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha takliflar buning yaqqol

misolidir. Yoshlar ishlari agentligi huzurida "Volontyorlikni qo'llab-quvvatlash" jamg'armasining tashkil etilishi bu yo'nalishning tizimli rivojlanishini ta'minlaydi. Jamg'armaga har yili 62 milliard so'm ajratilishi volontyorlikni bir martalik tashabbus emas, balki yoshlarni yetuklik, jamoatchilik faolligi, insonparvarlikka undaydigan doimiy ijtimoiy maktabga aylantiradi. Eng yaxshi volontyorlik loyihalariga 100 million so'mgacha grantlar yo'naltirilishi esa yoshlarning jamiyatga foydali va ta'sirchan tashabbuslar bilan chiqishiga yo'l ochadi.

Jazo muddatini o'tab bo'lgan yoshlarni "Ikkinchi imkon" loyihasi orqali zamonaviy AT kasblari va xorijiy tillar bo'yicha bepul o'qitish tashabbusi ijtimoiy reintegratsiya masalasida

Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarning ta'limi, bandligi va iqtisodiy faolligi mamlakat taraqqiyotining eng muhim omillaridan. Prezidentimizning yoshlar bilan ochiq muloqoti ushbu jarayonning navbatdagi bosqichini boshlab berdi. Ilgari surilgan tashabbuslar yoshlarning iqtisodiy mustaqilligini oshirish, ta'lim imkoniyatlarini kengaytirish, startap va innovatsion loyihalarini qo'llab-quvvatlash hamda ijtimoiy faolligini rag'batlantirish kabi strategik yo'nalishlarni qamrab oldi.



Otabek SOBITOV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
huzuridagi Yoshlar parlamenti raisi

Yoshlar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha belgilangan vazifalar miqyos jihatidan ham, mazmunan ham katta istiqbolga ega. O'zini o'zi band qilgan yigit-qizlar uchun kredit miqdorining sezilarli oshirilishi, innovatsion g'oyalarga 100 ming dollargacha investitsiya kiritish imkoniyati yaratilishi — bulaming barchasi yangi iqtisodiy mustaqil avlod shakllanishiga xizmat qiladi. Minglab yoshlar ilk biznes g'oyalarni amaliyotga tatbiq etish, faoliyatini kengaytirish yoki startaplarini bozorda mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladi.

yurtimizda mutlaqo yangi bosqichni boshlab beradi. Bu yo'nalish yoshlarni jamiyatga qaytarish, mehnat bozoriga moslashtirish va yangi hayot boshlashi uchun real sharoit yaratishga qaratilgan.

Umuman, ta'lim, kasbiy rivojlanish va mehnat bozoriga kirib borish bo'yicha ilgari surilgan ushbu tashabbuslar yoshlarning iqtisodiy mustaqilligini ta'minlash, ularni global mehnat bozoridagi raqobatga tayyorlash va eng muhimi, o'z kuchiga ishonchni mustahkamlashga qaratilgan. Bu tashabbuslar bosqichma-bosqich amalga oshirilishi natijasida mamlakatimizda bilimli, zamonaviy, tashabbuskor va mas'uliyatli yoshlar avlodi shakllanib boradi.

Yoshlar bilan muloqotda ilgari surilgan tashabbuslarni navbatdagi rejalar majmui emas, balki yoshlar siyosatida yangi davming boshlanishi sifatida baholash mumkin. Ularning har biri bugungi yigit-qizning ehtiyoji, orzusi va intilishlariga mos keladi. Bu yangiliklar orqali davlatimiz rahbari yoshlarning imkoniyatiga yuksak ishonchini, ular bilan birga taraqqiyot yo'lini bosib o'tishga tayyorligini yana bir bor amalda namoyon etdi.

Ta'limdan tortib tadbirkorlikkacha, innovatsiyalardan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimigacha bo'lgan keng qamrovli yondashuv yoshlarning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Kelajakda bilimli, tashabbuskor, bunyodkor va eng muhimi, o'ziga ishonadigan yoshlar avlodini shakllantirishga zamin yaratadi.

Bu ma'rifat, madaniyat yuksalishi uchun yana bir salmoqli qadamdır. Shuningdek, tarjima borasidagi ishlar ko'лами kengaytirilishi, eng sara xorijiy adabiyotlar o'zbek tiliga, milliy adabiyotlar esa chet tillarga tarjima qilinishi va chop etirilishi haqidagi fikrlar ijodkorlar va o'quvchilarni juda ruhlantiradi. Mutolaa madaniyati, adabiyot yanada yuksaladi.

Qisqasi, davlatimiz rahbarining yoshlar bilan muloqoti yangi marralar sari navbatdagidek qadam bo'ldi, salmoqli islohotlarga yo'l ochilib berdi. Bu ishonch va imkoniyatga munosil javob berish yoshlar qo'lida. Ular buni, albatta, ulyadlaydi.



AQL BILAN ISHLASH DAVRI

YOXUD G‘AFLATDAN QUTULISHNING BESH YO‘LI



Abduxalil MAVRULOV,
tarix fanlari doktori, professor

Boshlanishi 1-betda

Boyluk o'tirtirish, siyosiy maqsadlariga osonlik bilan erishishning ming xil yo'llarini topishning haddini olgan ayrim davlatlar eski davrlarni qo'mashdan iborat niyatlarini baralla aytishdan uyalmayapti.

Ular bugun mustaqillik tufayli o'z milliy taraqqiyotida misli ko'rilmagan darajada rivoj topib borayotgan, dunyo hamjamiyatida ta'sirli kuchga ega bo'layotgan mintqa va davlatlardan "ko'z uzolmayapti". Biroq tarix g'ildiragini aslo to'xtatib bo'lmaydi. Istiqlool nashidasi tort boshlagan o'zbek xalqi esa eskicha yashashni xohlamaydi. Biz uchun mustaqillik — ortga qaytmas yo'l. Bu yo'l o'zini ongli ravishda anglaganlar yo'lga aylandi.

Bularning bari boshqalar qatori o'zbek xalqining ham ko'plab masalalarga, masalan, turmush tarzimiz, o'zaro munosabatlarmiz, o'qishga, ishga qarashlarimizni zamonga moslab o'zgartirish, takomillashtirishni talab qilmoqda. Nazarimizda, ko'p vaqt sarflab, muayyan miqdordagi moddiy ne'matlar yaratish uchun ortiqcha mablag' ishlatib, songa emas, sifatga e'tibor berish, ishlab chiqarishda ekstensiv yo'ldan voz kechib, intensiv yo'lga o'tish, ish samaradorligi kam, uzoq yillar davomida ishlatib kelingan eski texnikani bir chetga surib, kam xarajatli va yuqori sifatli texnologiyalarga o'tish payti kelganini tezroq anglashimiz kerakka o'xshaydi.

Chunki bugun dunyoda barcha sohalarida sodir bo'layotgan musobaqalar, milliy manfaatlarini himoya qilish yo'lidagi to'g'ri-noto'g'ri siyosatlar, mafkuraviy-ma'naviy tahdidlar bizni og'ir sinovlar kutayotganidan darak beradi.

"Avvalo, xalqimiz manfaatlariga javob beradigan ichki va tashqi siyosatimizni qat'iy amalga oshirishimiz zarur. Bu yo'lda duch kelishimiz mumkin bo'lgan barcha to'siq va g'ovlarni hisobga olishimiz, ularidan talafotsiz o'tish choralarini ko'rishimiz, turli og'ir sinovlar va oldindan bashorat qilib bo'lmaydigan xavf-xatarlarni yengib o'tishga qodir bo'lgan milliy davlatchilgimiz asoslarini mustahkamlashimiz talab etiladi", deydi Prezidentimiz.

Darhaqiqat, juda to'g'ri va o'z o'rniida aytilgan fikrlar! Milliy manfaatlarimizga zid keluvchi turli-tuman xavf-xatarlar, ma'naviy-mafkuraviy tahdidlar alqachon bizni ham bezovta qilmoqda. Buni anglab ham yetganmiz. Ammo ruhiyatimizdagi konservativ tafakkur tarizidan qutula olmayotganimizni ham, "bizga bo'laveradi" qabilidagi holatdan voz kechish davri o'tib ketayotganini ham yoddan chiqarib bo'lmaydi.

Bular barchamizdan g'aflatdan qutulishni, har tomondan kelayotgan tahdidlardan ogoh bo'lishni talab qiladi. Mamlakatimiz yetakchisi ham bejiz vatan va xalq taqdiriga nisbatan tahdidlar kuchaygan vaziyatda aynan millat fidoyilari — uyg'oq qalbi ziyolilar, shoir va adiblar, san'at namoyandalari, ma'naviyat va ma'rifat sohasi xodimlari jasorat bilan maydonga chiqqanlar, deb o'tgan asr boshlarida xalqimizni ozodlik va ilm-ma'rifat uchun kurashga chorlagan jadid bobolarimizni eslagani yo'q.

Inson tabiatan shunday yaralganki, uning ko'zi ochiq, tirikchilik, turmush tashvishlari g'amida tinimsiz harakatda bo'ladi. Biroq u g'aflatda bo'lishi ham mumkin. U har doim odamlar orasida. Ishga, o'qishga boradi-keladi. Turli-tuman tahdidlarda qatnashadi, tashqaridan faoldek ko'rinadi. Ammo aslida-chi? Aslida, u faqat o'zini o'ylaydi. Tevarak-atrofda bo'layotgan voqea-hodisalar uni qiziqtirmaydi. Tahdidlarda barchanang ishtirok etayotgani tufayligina "o'zini ko'rsatadi". Ko'chada, mahallada, tumanda, viloyatda, mamlakatda, dunyoda sodir bo'layotgan hodisalar uni qiziqtirmaydi. O'z taqdirini hal etishda ham o'ziga suyanmaydi, davlat va millat kelajagi haqida qayg'urishni xayoliga keltirmaydi. Qanday jamiyatda, qaysi mafkuralar asosida yashashining farqi yo'q. Uning shiori: "Menga nima!", "Och qornim, tinch qilog'im", "Bir piyola choyim, bir burda nonim bo'lsa bo'ldi", "Bu mayda-chuyda ishlari, e'tibor bermasa ham bo'laveradi" kabilardan iborat. Ana shunday odamlarni g'aflatdagi kishilar deyish mumkin. Afsuski, bundaylar oramizda bor.

Xo'sh, "g'aflat" nimani anglatadi? G'aflat insonning aql va qalb ko'zini ko'r qiladi, bo'layotgan hodisalar, haqiqat va oxirat

mas'uliyatidan bexabarlik hamda loqaydlik holatiga tushiradi. G'aflat — ma'naviy ko'rlik, atrofdagi ibratli hodisalarni ko'ra turib, ulardan xulosa chiqarishga rag'bat bermaydi. Sharh tafakkur olamida g'aflat masalasiga nisbatan o'ta jiddiy munosabatda bo'lingan. Masalan, undan qutulish uchun qalbni yaxshi narsalar bilan to'ldirish lozimligi, shuningdek, g'aflat insonni jaholatga chaqirishi, har bir insonda uning borligi dunyo matohlari va havoyi orzular o'tidan quvishga undaydigan salbiy holat ekaniga alohida diqqat qilingan. Buyuk mutafakkir Abu Homid G'azzoli bunday yozadi: "G'aflat afsus-nadomatni keltirib chiqaradi va ne'matning qo'ldan ketishiga sabab bo'ladi. U Allohning yo'lini pardalaydi, hasadning kuchayishi va kishining ozorlanishiga sabab bo'ladi...".

Ko'hna Sharqning yana bir allomasi, vatandoshimiz Xoja Samandar Termiziy ijodida ham ko'plab tarbiyaviy-ma'naviy masalalar qatorida g'aflat, uning inson, vatan taqdiridagi zarariga alohida e'tibor beriladi. Uning fikricha, dushman har doim insonning g'aflatda qolishini kutadi. Dushman uchun muhimi odamning g'aflatda qolishidir.

Albatta, keyingi yillarda, ayniqsa, so'nggi 8-9 yil mobaynida mamlakatimizda kechayotgan keng ko'lamli islohotlar tufayli odamlarimizning ma'naviy olamida jiddiy sifat o'zgarishlari sodir bo'lmoqda. O'z taqdirini millat va vatan taqdiri bilan uzviy bog'lash, islohotlarning shunchaki kuzatuvchisi emas, aksincha, faol ishtirokchisi sifatida namoyan etadiganlar safi tobora ko'payib bormoqda. Biroq odamlar orasida hali ham g'aflat uyqusida yotgan, ma'naviy-mafkuraviy uyg'onishni xayoliga ham keltirmayotgan, dunyoda sodir bo'layotgan voqea-hodisalaridan adolatli xulosa chiqarishga harakat qilmayotgan ayrim vatandoshlarimizning borligi, hech shubhasiz, jamiyatda muayyan e'tirozlariga sabab bo'lishi tayindir.

Shu nuqtayni nazardan, ana shunday odamlarni g'aflat uyqusidan chiqarishning quyidagi yo'llari haqida subyektiv fikrlarni bayon etishni maqsadga muvofiq deb bildik.

Birinchidan, insonning g'aflatdan uyg'onishi tarixni, xususan, milliy tarixni o'rganish, his etish, undan zarur xulosalar chiqarishi asosida ro'y beradi. Tarixni inkor etish o'zlikni inkor etish, pirovard oqibatda o'zlikni yo'qotishdan boshqa narsa emas. Tarixni his etish tarixda yashash, uni har doim, har soniyada yod etish, o'tmishdan ruhiy quvvat olish demakdir.

Agar biz o'tmishni o'rganishda xalqioy me'yorlarni topa bilmasak va ularga suyanmasak, alohida shaxsning insoniyat oldidagi mas'uliyatni sezish qobiliyatini barbot qilgan bo'lamiz. Shuning uchun ham nemis olimi Fridrix Shiller "Tarixni o'rganish aqlimizni nurlantiradi, qalbizni olijanob fidoyilik bilan algalantiradi. U ruhimizni xalqioy masalalarga pastkashlik va bachkanalik bilan yondashishdan saqlaydi", deganida haq edi.

Xo'sh, insonning g'aflatga botishi va tarixni o'rganish o'rnatidagi mantiqiy bog'liqlik nimadan iborat? Gap shundaki, g'aflatda qolish yaqin va uzoq tariximizdagi mustamlakachiliklar davridagi moddiy va ma'naviy yo'qotishlarimizni unutishga, yo'l qo'ygan xato-kamchiliklarimizdan saboq chiqarishdagi ojizligimizga, kelajagimizni yorqin tasavvur qila olmasligimizga olib keladi.

Eng achinarlisi, tarixni unutish milliy birlikni yemiradi. Bugun, yuqorida qayd etganimizdek, dunyoda keskin kurash va raqobat kuchaymoqda. Jahonda manfaatlar to'qnashuvi avj olaypti. Globallashuv jarayoni insoniyat uchun avvallari tasavvur qilib bo'lmaydigan imkoniyatlar bilan birga kutilmagan muammolari ham keltirib chiqarmoqda.


Dunyoda manfaatlar to'qnashuvi avj olgan bir paytda bizni turli balo-qazolardan asrab qoladigan yagona kuch milliy birlikdir. Avvallari qayta-qayta ta'kidlaganimizdek, o'zbek xalqi shonli tarixida nimaga erishgan bo'lsa, milliy birlik tufayli erishgan, nimani yo'qotgan bo'lsa, u ham milliy birlik va milliy o'zlikka nisbatan e'tiborsizlik tufaylidir. Darhaqiqat, milliy birlik har bir shaxsni, pirovard natijada millatni g'aflat uyqusidan uyg'otadi, sergaklikni oshiradi, millatga ma'naviy-ruhiy quvvat beradi, yangi maqsadlar sari chorlaydi.

Ammo bu borada keyingi yillarda talay ibratli ishlar qilinganiga qaramay, bu fanning rivoji zamon talablaridan ortda qolmoqda. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, "Tarixga oid ilmiy tadqiqot ishlari asosan bayonchilik, publitsistik usulda olib borilmoqda. Natijada olis va yaqin o'tmishimizdagi ko'pgina voqealarning mazmun-mohiyati, ularni yuzaga keltirgan omillar va tarixiy qonuniyatlar ochilmasdan qolmoqda. Bir haqiqatni barchamiz chuqur anglab olishimiz kerak: milliy tarixni xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimizga milliy ruhda yetkazish, ularning qalbiga, shuuriga singdirish kerak. Aks holda, uning tarbiyaviy ta'siri bo'lmaydi. Biz yoshlarimizni tarixdan saboq olishi, xulosa chiqarishga o'rnatishimiz, ularni tarix ilmi, tarixiy tafakkur bilan qurollantirishimiz zarur".



Tarixning milliy birlikni mustahkamlashdagi alohida o'rini qayd etgan holda Prezidentimiz 2021-yildayoq yurt tarixchilari oldiga O'zbekistonda tarix fanini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish vazifasini qo'ygan edi. Biroq bu konsepsiyaning zarurligi bugungi kunda juda sezilyapti. Shu o'rinda o'zbek tarixchilari milliy tariximiz konsepsiyasini tezroq ishlab chiqishi o'ta zarur. Unutmaylik, jamiyatni g'aflat uyqusidan uyg'otish faqat va faqat tarixni o'rganish, undan zarur saboqlar chiqarish orqaligina yuz berishi mumkin. Ikkinchidan, millatni g'aflat uyqusidan uyg'otishda siyosiy madaniyatning o'rni behiyova katta. Siyosiy madaniyat umumiy madaniyatning eng muhim jihatlaridan birini tashkil etadi. Siyosiy madaniyat jamiyat a'zolari, ijtimoiy guruhlari, alohida fuqaroning davlat ichki va tashqi siyosatini tushuna bilish qobiliyati, tahlil qila olish darajasi va siyosiy vaziyatga qarab, mustaqil ravishda o'z xatti-harakatlarini belgilash hamda ularni real hayotda ro'yobga chiqarish madaniyatidir.

Siyosiy madaniyat insonning amaliy faoliyatini tashkil etish, siyosiy tafakkur va siyosiy xabardorlik darajasi oshishiga, pirovardida siyosiy-mafkuraviy kayfiyati shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan muhim hodisadir. Shaxs siyosiy madaniyati bugungi dunyodagi tub o'zgarishlar, burilishlar davrida zarur hisoblanadi.



G'aflat qo'ynidagi odam uchun mamlakat va jamiyat hayotidagi har qanday o'zgarishlar ahamiyatsiz. Unday odam uchun o'zi yashab turgan mamlakatdagi siyosiy jarayonlar, mintaqalar va davlatlar o'rnatidagi munosabatlarning mutlaqo qizig'i yo'q. U o'zi uchun, bugun bilani yashaydi. Bundaylar mamlakat va jamiyat uchun dushmanlarga qaraganda ham xavfliroqdir.

Milliy tariximizga e'tibor qaratadigan bo'lsak, siyosiy madaniyatimiz kamligi yoki yo'qligidan ko'proq azob chekkanmiz. Maishiy muammolarimiz bilan o'ralshib qolgan, to'y va aza tadbirlarini o'tkazishdagi "kimo'zarlik"dan iborat azaliy milliy illatlarimiz ham bizni g'aflat botqog'iga tortdi.

Bugun yangi O'zbekistonda barpo etishda muayyan qiyinchiliklarga duch kelishimizda ham siyosiy madaniyat darajasi pastligi pand beryapti deyishimiz mumkin. Masalan, siyosiy madaniyatning pastligi bugungi murakkab siyosiy-mafkuraviy makonda bizga kim to'g'riyu kim noto'g'ri "maslahat" berayotganini anglashimizga to'siq bo'lmoqda.

Siyosiy madaniyatimiz darajasining pastligi oqibatida uzoq davrlar davomida kimlargadir

qaram bo'lganimizni unutish mumkinmi? Kim bizga yaxshi va shirin gaplar gapirsa, uning tub mohiyatini anglamasdan, tahlil etmasdan ularga ishongan davrlarimizni esdan chiqarmasligimiz lozim deb o'ylayman.

Ko'hna tarixda bunga misollar juda ko'p. Masalan, Turk xoqonligi davrida Bilga xoqon o'zida vatan tuyg'usi juda baland ekanini ko'rsatadi, o'ta ishonuvchan bo'lmalik, boshqalarning gapini mulohaza qilgandan keyin ish yuritish kerakligini ta'kidlaydi. U aytadi: "Ey turk xalqi, to'kis ishonuvchansan, samimiy va nosamimiyni ajratmaysan, kim qattiq gapirsa, samimiyni ham tanimaysan. O'shandayliging uchun tarbiyat qilgan xoqoningning so'zini olmayin, har qayerga ketding, u yerlarda butunlay g'oyib bo'lding, nom-nishonsiz ketding".

Siyosiy sergaklikni yo'qotish siyosiy madaniyat shakllanishiga jiddiy ta'sir qiladigan omildir. Chunki siyosiy madaniyat va siyosiy sergaklik uyg'unlashgan makon va zamonda odamlar davlat siyosatini tahlil qila olish, undan xolis xulosalar chiqarishga imkon topadi. Bugungi jiddiy globallashuv davrida, siyosiy-mafkuraviy tahdidlar kundan kun avj olayotgan bir sharoitda turli siyosiy muxoliflar odamlar ongini yaxshi va shirin so'zlar bilan manipulyatsiya qilishning ming xil yo'llarini o'yab topmoqda.

Uchinchidan, g'aflatdan qutulishning ta'sirchan yo'llaridan yana biri shaxsning passiv kuzatuvchanlikdan jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylanishidan iborat. Passiv kuzatuvchi odatda loqayd odam. Undaylar doimo inson, jamiyat, millat ishiga beparvo bo'ladi. Yanayam boshqacha aytganda, loqaydlik — ma'naviy illat. Bu illatdan qutulish qiyin. Ammo jamiyatda yuz berayotgan ijtimoiylashuv orqali undagi loqaydlikdan iborat ma'naviy illatni bartaraf etsa bo'ladi.

Bugun yangi O'zbekistonda ijtimoiy davlat barpo etilishi bilan bog'liq jarayonlar insonni g'aflat uyqusidan uyg'otib, undagi loqaydlik holatini bartaraf etishi mumkin. Loqayd odamlarning eng zararli jihatlaridan biri ularda qat'iy hayotiy pozitsiyaning yo'qligidir. Undaylar kim nima desa, shunga osonlik bilan ishonaveradi. Undaylarni manipulyatsiya qilish juda oson. Ijtimoiy tarmoqlarga "qul" bo'lib qolish, davlat tomonidan taqdim etiladigan rasmiy ma'lumotlarga beparvo munosabatlar loqaydlikning yaramas ko'rinishlaridandir.

Hayotiy pozitsiyaning yo'qligi esa, o'z navbatida, uni davlat, jamiyat, el-yurt tashvishlaridan chetda turishga, mas'uliyatdan qochishga undaydi. Uning qadriyatleri o'zgaruvchan, tashqi muhit ta'siriga beriluvchan bo'ladi. Afsuski, ayrim vatandoshlarimizda ana shu sifat ustuvorlik qiladi. Loqayd odamlarda fursatning boy berilishidan afsuslanish hissi bo'lmaydi. Mamlakat va millat taqdiri kun tartibida turgan paytlarda loqayd odamlarning faoliyati (aniq aytadigan bo'lsak, faoliyatsizligi) qimmatga tushishi mumkin.

Insonni loqaydlik holatidan qaytarish uchun, nazarimizda, ulardagi ijtimoiy-siyosiy bilim darajasini oshirish, ma'naviy-siyosiy tarq'ibotning ta'sirchan yo'llaridan keng foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shu bois, bir paytlar odamlarimiz orasida muayyan ma'noda nufuzga ega bo'lgan va televideniya ko'rsatib borilgan "Siyosat olamida", "Tafakkur soati" kabi ko'rsatuvlarni tiklashni maqsadga muvofiq deyish mumkin.

To'rtinchidan, g'aflatdan qutulishning muhim yo'llaridan yana biri o'zimizga ortiqcha baho berishdan tiyilish, hozirgi dunyoda davlatlar va xalqlar taraqqiyotidagi iyerarxiy o'zgarishlar jiddiy tus olayotganini e'tiborga olishdir.

Aslo unutish mumkin emaski, kim bugun o'zining mavjud holatidan qoniqish hosil qilgan, uning barcha jabhalarida munosib o'rin egallagan davlat. Buni xalqaro hamjamiyat allaqachon tan olgan. Davlatimiz rahbari tomonidan Uchinchi Renessansni barpo etish g'oyasi ilgari surilgani ham bejiz emas. Zoro, bunday qarorga kelishning sababi bu borada katta tajribaga egaligimiz, xalqimiz qoni va ruhiyatida ko'hna moziyda jahoniy kashfiyotlar yaratgan, ixtirolar qilgan mutafakkir-allomalarimiz qoni oqayotganidir.

Biroq agar biz faqat buyuk o'tmishimizni ko'z-ko'z qilish bilangina cheklanib qoladigan bo'lsak, ko'p narsani yo'qotishimiz, g'aflatda qolishimiz mumkin. Nazarimda, bu borada shiorimiz bunday bo'lishi lozim: o'tmishdan ma'naviy-ruhiy quvvat olib, o'z zaminimizda mustahkam turib, barcha imkoniyatlarimizni kelajakdan izlash.

Tarix bugun bizga betakror imkoniyat yaratdi: yangi O'zbekistonda barpo etish, barqaror iqtisodiyotni yaratish, xalqimizni buyuk ishlarga safarbar qilish, real hayotda umummilliy taraqqiyotga erishish imkoniyatiga egamiz. Qolaversa, bugungi yangi O'zbekiston taraqqiyoti jahon hamjamiyati tomonidan ham qo'llab-quvvatlanmoqda. Ana shunday sharoitda biz bir narsani unutishga aslo haqqimiz yo'q: biz bugun Birinchi va Ikkinchi Renessansni yaratgan Forobiy, Ibn Sino, Farg'oni, Beruniy, Xorazmiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, islom dini taraqqiyotini eng yuqori cho'qqilarga olib chiqqan

allomalarimiz bilan haqli ravishda faxrlanamiz. Ammo XXX va XXXV asrlarda yashaydigan avlodlarimiz bugun, XXI asrda amalga oshirgan qaysi ixtirolar, jahoniy kashfiyotlarimiz bilan g'ururlanadi? Ana shunday kayfiyat, nazarimda, ayrim loqayd odamlarimizni g'aflat uyqusidan uyg'otadi.

G'aflat uyqusidan uyg'onmoq uchun endi "qattiq ishlash emas, aql bilan ishlash"ga o'tishimiz lozim. Ha, xuddi shunday davr keldi. Hissiyotga qul bo'lib, ichki kechilmalarimizga quloq tutib, birovlarining fikriga ergashib yurish qanchalik "qimmatga tushishi" mumkinligini endi anglab yetishimiz kerak.

Bu esa barchamizdan aqlga suyanishni talab etadi. Aql nima? Nima uchun aqlga suyanishimiz kerak? Birinchidan, aql inson miyasining dunyoni aks ettirish va shaxsning voqelikka munosabatini boshqarib turadigan faoliyat hisoblanib, insonni fikrlashga undaydigan hodisadir. Ikkinchidan, aql insonning fikrlashi, bilishi, tahlil qilishi, tushunishi va eng muhimi, to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatidir. Uchinchidan, aql doimiy ravishda yangi bilimlar bilan boyib boruvchi, insonning insoniyatini saqlab qoluvchi kuchli va ta'sirchan ma'naviy omildir.

Alisher Navoiy ijodida aql bilan bog'liq juda ko'p iboralarini ko'rish mumkin. Masalan, alloma o'z asarlarida aql ahli — hushyor ong egalari; aql mezon — ong, aql o'chovi, tarozusi; aql muhandislari — donishmandlar, olimlar, bilimdonlar; aql xirmoni — aql mujassamligi; aql o'ti — zehni o'tkirligi, hushyorlik; aql javohirshunos — yetuk, komil va so'zning yashirin sirlarini yaxshi tushunuvchi va nozikta'b kishilarni idrokli kabi aql so'zi zini 27 o'rinda qo'llab, uning 27 darajasi va 27 sifatini ma'lum qiladi.

Haqiqatan, aql bitta so'z bo'lganiga qaramay, uning darajalari juda ko'p. Insonning yetukligi, jamiyatdagi mavqei, odamlar bilan munosabatidagi darajalari aynan ana shu fenomen hodisa bilan bevosita bog'lanishi ham bejiz emas.

Biz bugun yangi O'zbekistonda barpo etar ekanmiz, shubhasiz, bu jarayon inson aqlining quvvatisiz ro'y berishi aslo mumkin emasligini anglashimiz lozim. Nazarimda, biz uzoq yillar davomida bir jiddiy xatoga yo'l qo'yadikdek: mehnatni aqliy va jismoniy mehnatga bo'lib qo'ydik. Axir jismoniy mehnat ham aqlga suyanmaydimi? Insonning har bir faoliyat turi aql, ilm-fan, farosatga suyanmas ekan, uning samaradorlik darajasi pasayib boraveradi.

Bugungi dunyoning barcha ilg'or mamlakatlari nimaga erishgan bo'lsa, aql bilan ishlash tufayli, yangicha tafakkur ila rivojlandi, taraqqiyotning yangi bosqichlariga erishdi.

Yana bir muhim masala: biz yangi davrga raqamli dunyo, yangi texnologik inqilob va sun'iy intellekt orqali kirib boryapmiz. Davlatimiz rahbarining bot-bot qayd etishicha, endi oldimizda ko'ndalang bo'lib turgan eng murakkab vazifalardan biri yangi texnologik inqilob talablariga javob beradigan, zamonaviy tafakkur tarziga ega yoshlarni tarbiyalashdir.

Beshinchidan, ayrim odamlarimizni g'aflat uyqusidan uyg'otish uchun ularda yuksak vatanparvarlik, vatansavallik tuyg'usini shakllantirishimiz lozim. Bu borada mamlakatimiz yetakchisi har bir asarida, ma'rulalari-yu yoshlar, aholining barcha qatlamlari bilan uchrashuvlarida takror-takror qayd etadi. Bugungi dunyoda jiddiy o'zgarishlar girdobiga g'arq bo'ldi. Azaliy qadriyatlar yemirilishi avj olmoqda. Ayrim bashoratchilar milliy davlatlar o'z vazifasini bajarib bo'ldi, endi "yagona dunyo modelini yaratish" davri keldi degan iddialarni tobora balandroq gapirmoqda.

G'aflatdagi odamga vatan, vatan tuyg'usi haqidagi gaplar ta'sir qilavermaydi. Shuning uchun ham vatanparvarlik, vatansavallik borasidagi ishlarimizning samaradorlik darajasini jiddiy oshirishimiz bugun behiyova zarur. Vatan to'g'risida gapirishning juda kuchli mas'uliyat bor. Vatan to'g'risida shu'r bitib, qo'shiq aytib, adini vaqtda uni sotganlar qancha bo'ldi. Vataniga sotiqman deya qasam ichib, unga sotqinlik qilganlar kammi?

Shuning uchun bugungi ma'naviy-tarbiyaviy ishlarimiz, ta'lim-tarbiya borasida gapirganimizda vatanparvarlik, vatansavallik tuyg'usini shakllantirishga e'tiborni kuchaytirishimiz lozim. Buning uchun, fikrimizcha, ta'lim tizimida ijtimoiy-gumanitar fanlar nufuzini jiddiy oshirish kerak. Ayniqsa, oliy ta'lim tizimida bu masalaga ustuvor e'tibor zarur. Axir buyuk tariximizda qo'lga kiritilgan yutuqlarimiz, yaratilgan kashfiyotlar, ixtirolar haqida bilim bermasdan yoshlarda milliy g'urur tuyg'usini uyg'otish mumkinmi?

"Bugun bizga bilimli yoshlar kerak, zamonaviy mutaxassisliklarga ega kadrlar lozim", deyidiganlar haq. Ayni paytda shunday yoshlarda vatan tuyg'usini shakllantirish esa globallashuv va mafkuraviy bosimlar kuchaygan bugungi kunda muhim o'rin egallashi kerak. Buning uchun esa bizga "global fikrlaydigan, lokal ishlaydigan" yoshlar zarur. Ana shunday maqomdagi yoshlarni g'aflat uyqusidan uyg'ongan, tom ma'nodagi vatanparvar, vatansavallik, desak to'g'ri bo'ladi.

